5-SHO'BA
TEXNOLOGIYALAR VA BARQAROR RIVOJLANISH

ZAFARON (CROCUS SATIVUS) YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

[1]Mahammatqulov Shaxzod Baxtiyor o'g'li
[2]Xayrullayeva Odina Sayfiddin qizi
[3]Husanova Charos Otabek qizi
(PhD).[4]O'ralov Abdumannon Iskandarovich
[1,2,3,4]O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filliali

Annotatsiya: Zafaron (Crocus sativus)-Gulsafsarguldoshlarga mansub ko'p yillik o'tsimon tuganak piyozli o'simlik yovvoyi holda uchramaydi. Piyozining diametri 1-2 santimetr. Bargi 5-15 ta, och sariq rangda eni 2 mm, tuksiz. Guli 1-4 ta, gultoji oqish, pastki qismi (tashqi tomondan) binafsha rang, uzunligi 2-4 sm. Changchilari gulqo'rg'ondan qisqa. Ko'sagi cho'ziq, eni 6-7 mm. Fevral-iyulda gullaydi, aprel-avgustda meva beradi. Tarkibida efir moyi bo'lgani uchun hidi juda o'tkir va yoqimli, 90-100 ming dona zafaron gulidan 1 kg qurigan gul tumshuqchalari olinadi. Zafaronning tarkibida 10-12 % suv, 5-7 % mineral moddalar, 5-8 % moy va mum, 12-13 % oqsil va eng oz miqdorda yog' ekstraktidan iborat o'ziga xos va xushbo'y yoqimli moddalardan tarkib topgan.

Kalit so'zlar: Hindiston, buyrak, Crocus sativus, onkolog, kolibrli tugunak, likyor.

O'simlikni tarqalishi: Zafaron Hindiston, Pokiston, Xitoy, Janubiy Yevropa, Ozarbayjonda katta kabi davlatlarda uchraydi. O'simlikni yovvoyi turlari esa O'zbekiston hududining Toshkent va Farg'ona viloyatlaridagi adir va tog'larida o'sadi [2]. Bunga misol qilib, O'zbekiston hududining Jizzax viloyati Baxmal tumanida birinchi marotaba za'faron piyozi ekildi uni ekishdan maqsad tarkibida efir moylari bo'lganligi uchun hidi juda o'tkir va yoqimli va 90-100 ming dona za'faron gulidan 1 kg qurigan gul tumshuqchalari olinadi murabbo, tortlar rangni va ta'mini yaxshilash, oziq-ovqat pishloq, sariyog'. likyor va boshqalarga rang berish uchun), parfyumeriya (atira-upa) sanoatida ishlatiladi.



Tibbiyotda qo'llanilishi: Zafaron dori-darmon sifatida qo'llaniladi. Zafaron

hozirgi tibbiyotimizda ko‘zga tomiziladigan dori sifatida undan tashqari xushbo‘y hidini hidlash insonni nafas olish organlariga ijobiy ta’sir qilib tinchlantiradi va uyqusizlikdan qutilishga yordam beradi. Kuchli bosh og‘rig‘ida va quloq shamollaganida zafaron suvida paxta yoki yumshoq matoni ho‘llab a’zoga bosilsa, og‘riqni qoldiradi. Onkologik kasalliklarni davolashda hatto kasallikning oxirgi bosqichida saraton o‘simtalariga qarshilik ko‘rsatadi va ularning hujayralari o‘sishini to‘xtatadi.Qonni tozalashda uni yangilaydi va tozalaydi, demak yurak qon tomir tizimini mustahkamlaydi, organizmning barcha hujayralarini oziqlantiradi. Miya faoliyati aktivligini yaxshilaydi bosh miya to‘qimalarini o‘stiradi, xotirani yaxshilaydi. Bosh og‘rig‘i va uyqusizlikdan xalos etadi,oshqozon-ichak faoliyatini me’yorga keltiradi.Buyrak va qovuqni davolaydi asal aralashtirilgan zafaron buyrak va qovuqdagi toshlarni maydalaydi [3].

Yetishtirish texnologiyasi: Zafaron ekish uchun tanlangan yer maydonlari traktor yordamida tekislanib, 60 sm kenglikdagi qatorlar tortiladi, 9-10 kolibrli tuganak piyozlar bir-biridan 18-19 sm uzoqlikda, 7-15 sm chuqurlikda ekiladi. Bunda, 1 gektar maydonga o‘rtacha 1000 kg yoki 90 ming dona saralangan tuganak piyoz sarflanadi. Ekilgandan so‘ng piyozlar tuproqqa o‘rnashib olishi uchun zaxlatib sug‘oriladi.Ekilgan yilning oktyabr-noyabr oylariga kelib, za’faron gullari yig‘ishtirib olinadi. Eng muhim va katta mehnat talab qilinadigan jarayonlardan biri shundaki, yig‘ishtirib olingan gullardan shu kunning o‘zida zudlik bilan urug‘chilari ajratib olinadi, aks holda qurigan guldan urug‘chasini ajratib olish qiyin bo‘ladi [4,5].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Yuksak o‘simliklarning zamonaviy tizimi (bo‘lim, ajdod, qabila, oila, turkumlarning o‘zbekcha, ilmiy va ruscha nomlari I kitob) “O‘qituvchi” nashriyot-matba ijodiy uyi Toshkent-2007 yil (40-bet).

2. Saxobiddinov S.S. O‘simliklar sistematikasi Toshkent-1966 yil. 402-403 b

3. Ayupov R.X. Dorivor o‘simliklar va ularni foydalanish Toshkent 2015 yil.136-137 b

4. G’aniyev A.K., Axmedjonova A.K. Dorivor va ziravor o‘simliklarni yetishtiruvchi va tayyorlovchi mutaxasislar uchun Toshkent-2020 yil.

5. Уралов А.И., Печеницын В.П. Зависимость семенной продуктивности луковичных видов Allium L. от количества листьев на генеративном побеге. Доклады АН РУз. 2015. 74-77 с.

6. ДТ Хамраева, ОК Хожиматов, АИ Уралов. Рост и развитие Ferula tadshikorum Pimenov в условиях интродукции. Acta Biologica Sibirica 5 (3),

172-177

7. МД Тургунов, ВП Печеницын, НЮ Бешко, АИ Уралов, ДА Абдуллаев. Биологические особенности редких видов семейства Iridaceae Juss. Флоры Узбекистана в условиях ex situ. Acta Biologica Sibirica 5 (2), 17-22

8. АИ Ўралов, С Бойкул, Қ Ахмедова. ТАБИИЙ ШАРОИТИДА ALLIUM ТУРКУМИ АЙРИМ ТУРЛАРИНИНГ УРУҒ МАҲСУЛДОРЛИГИ. Academic research in educational sciences 3 (1), 164-169

9. АИ Уралов, ВП Печеницын. Зависимость семенной продуктивности луковичных видов Allium L. от количества листьев на генеративном побеге. Доклады АН РУз, 74-77